

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarda Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliv ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'ichiyev</b>	
Anvar Obidjon lirkasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyoquba</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbanalieva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkiranush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkirawanislardan nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rmini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rkon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika assosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalananishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalaniishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz tillarida "dog/it/sag" zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

## TILSHUNOSLIKDA NUTQIY JANRLAR VA SOHA QASAMLARI MASALASI

## ВОПРОС О РЕЧЕВЫХ ЖАНРАХ И ОТРАСЛЕВЫХ КЛЯТВАХ В ЛИНГВИСТИКЕ

## THE QUESTION OF SPEECH GENRES AND OATHS IN BRANCHES OF LINGUISTICS

**Saminjonov Muxammadali Salimjon o'g'li<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Saminjonov Muxammadali Salimjon o'g'li**

– Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti  
Ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada tilning taraqqiyoti natijasida bir ilmiy paradigma o'miga ikkinchi paradigmaning yuzaga kelishi, tilning funksiyalashuvini muloqot jarayoni bilan bog'lab tadqiq etuvchi kommunikativ tilshunoslikning maydonga kelishi, XX asr tilshunosligida yetakchi bo'lgan sistem-struktur paradigmaning antropotsentrik paradigma bilan almashinuvi natijasi ekanligiga va tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida til unsurlariga antropotsentrik nuqtai nazaridan qarash va ularga "til va uning sohibi" munosabatdorligi asosida baho berish ustuvorligi bayon etilgan.

**Аннотация**

В статье рассматривается как результатом развития языка, появление второй парадигмы вместо одной научной парадигмы, появление коммуникативной лингвистики, изучающей функционирование языка в связи с процессом общения. результатом смены системно-структурной парадигмы, бывшей ведущей в языкоznании XX века, на антропоцентрическую парадигму, а на современном этапе развития языкоznания – приоритет рассмотрения языковых элементов с антропоцентрической точки зрения и оценивание их на основе отношений между «языком и его владельцем».

**Abstract**

In the article, as a result of the development of the language, the emergence of a second paradigm instead of one scientific paradigm, the emergence of communicative linguistics, which studies the functioning of the language in connection with the process of communication, is the result of the exchange of the system-structural paradigm, which was the leader in the 20th century linguistics, with the anthropocentric paradigm, and At the current stage of development of linguistics, the priority of looking at language elements from an anthropocentric point of view and evaluating them based on the relationship "language and its owner" is stated.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, kommunikativlik, nutqiy faoliyat, nuqtai nazar, taraqqiyot, paradigma , funksiya, til , muloqot , sistema.

**Ключевые слова:** языкоznание, коммуникатив, речевая деятельность, перспектива, развитие, парадигма, функция, язык, общение, система.

**Key words:** linguistics, communicative, speech activity, perspective, development, paradigm, function, language, communication, system.

**KIRISH**

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning o'talariga qadar nutqiy faoliyatning til tomonigagina asosiy diqqat qaratilgan. Tilning taraqqiyoti natijasida bir ilmiy paradigma o'rniiga ikkinchi paradigma keladi. Tilning funksiyalashuvini muloqot jarayoni bilan bog'lab tadqiq etuvchi kommunikativ tilshunoslikning maydonga kelishi XX asr tilshunosligida yetakchi bo'lgan sistem-struktur paradigmaning antropotsentrik paradigma bilan almashinuvi natijasidir. Tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida til unsurlariga antropotsentrik nuqtai nazaridan qarash va ularga "til va uning sohibi" munosabatdorligi asosida baho berish ustuvorlik qilmoqda. Buning natijasida inson kognitiv faoliyati va in'ikos shaklini yoritishga qaratilgan, borliq-til-onq munosabatlarini aks ettiruvchi kognitiv tilshunoslik hamda ushbu jarayonlarni ijtimoiy, psixologik, milliy-madaniy, mental va aksilogik belgilari uyg'unligida tadqiq etishga qaratilgan kommunikativ lingvistika rivojlandi.

Dunyo tilshunosligida nutqiy janrlar nazariyasi tobora ommaviyashib borayotgan o'ziga xos ilmiy yo'nalish bo'lib, bu nazariyaning markaziy masalasi til tizimida nutqiy janrlarning differensial belgilarini aniqlashdir. Hozirgi globallashuv sharoitida kommunikatsiya va madaniyatlararo muloqotning tezlashuvi, yaqinlashuvi nutqiy janrlarni o'rganishga e'tiborning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

## TILSHUNOSLIK

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda nutqiy janrlar masalasida o'zbek badiiy adabiyoti va o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, shu kunga qadar o'zbek tilini nutqiy janrlar nazariyasi asosida boshqa tillarga qiyoslab o'rganishga endi e'tibor berila boshladи. Nutqiy janrlarni qiyosiy o'rganish qiyoslanayotgan tillarning differensial belgilarini aniqlashga yordam beradi.

Rus tilshunoslari e'tirof etganday, "Nutq janrlarini o'rganish uchun olg'a" degani "orqaga Baxtinga qaytish" deganidir. Chunki M.M.Baxtinning lingvistik tadqiqotlari, ayniqsa, tugallanmagan "Nutqiy janrlar muammosi" maqolasi XX asrning 50-yillariga kelib g'arbda ancha keng tarqalgan edi. O'z zamонидан ilgari paydo bo'lgan, deb qaraluvchi Baxtinning nutqiy janrlar konsepsiysi 20-yillar sovet va jahon lingvistikasida antistruktur deb baholangan va tilshunoslар tomonidan qabul qilinmagan. Faqat 50-yillarga kelib Baxtinning "Nutqiy janr muammolari" maqolasidan keyin ushbu masalaga qiziqish kuchaydi. Bu paytda Baxtinning faoliyati Vinogradov strukturalizmiga qarshi qaratilgan edi. Ko'rинадики, bunday ziddiyat lingvistikasining, xususan, nutq lingvistikasining rivojlanishga turki bo'lgan. M.M.Baxtinning 1953-1954 yillarda yozgan nutqiy janrlarga bag'ishlangan maqolasi o'limidan keyin birinchi marta 1979 yilda nashr qilindi. Uning 5 tomdan iborat asarlar to'plamiga metalingvistikaga oid "Dostoyevskiy she'riyati muammolari" asari kiritilmay qolgan.

Adabiyotshunoslilik va lingvistika chegarasidagi muammolar M.M.Baxtinni avvaldan qiziqtirib kelgan. 1951 va 1952 yillar davomida yozilgan ishlar bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki muammo – dialog va nutqiy janrga bag'ishlangan edi. Nutq zanjiridagi alohida aytimlarning bir-biriga munosabatini M.M.Baxtin dialogik deb tushungan: "Har bir konkret nutqiy muloqot birligi sifatidagi aytimning chegarasi nutqiy subyektlarning almashishi, so'zlovchining o'zgarishi bilan aniqlanadi. Har qanday aytim – qisqa bir so'zdan iborat bo'lgan ijtimoiy dialog murojaatidan tortib, katta hajmdagi roman yoki ilmiy risola – absolyut boshlanish va absolyut yakunga ega: uning boshlanishiga qadar – boshqalarning aytimi, uning yakunidan keyin – boshqalarning javoblari (hech bo'lmasa, boshqani to'liq tushunganlik belgisi bo'lgan sukut)". Demak, aytimda navbat va sukut ham muhim ahamiyatga ega. Avvaliga dialogga ko'p e'tibor berilgan bo'lsa, keyinchalik ijodning markazini nutqiy janrlarlar egallab olgan.

Dastlabki ishlarida olim nutqni funksiya va janrlar bo'yicha tasnif qilishga urinadi. Bunda funksiya tushunchasi ostida funksional uslublarni nazarda tutgan olim, keyinchalik bu fikrdan voz kechadi. Dastlabki qo'l yozmalarida ishlataligan *janr* so'zi keyinchalik *nutqiy janr* va *nutqiy muloqot* terminlari bilan o'zgargan. M.M.Baxtin fanda faqat adabiy janrlar nazariyasi ishlab chiqilganligini, uslub va janr muammosi to'liq ishlanmaganligini, maishiy dialoglar tasnifi haligacha mavjud emasligini ta'kidlaydi. Ammo bu ishlarda janrlar sistemasi, ularning boshqalardan farqli chegarasi berilmagan.

Nutq janri kompozitsiyasi bir butunlik bo'lib, M.M.Baxtinning ta'rificha, u 1) butunning dastlabki qurilish tiplari; 2) uning yakuniy tiplari; 3) so'zlovchining nutq muloqotining boshqa qatnashchilariga munosabati tiplari kabi turlarga ajraladi. M.Baxtin fikriga ko'ra, nutq janrlari aytimning tipik shakli bo'lib, ular nutq zanjirining alohida halqalarini tashkil qiladi: "Har qanday aytim – nutqiy muloqot zanjirining halqasi. Bu so'zlovchining ma'lum predmet-mazmuniy sferadagi faol pozitsiyasidir. Til vositalari va nutqiy janrlar tanlovi predmet-mazmuniy topshiriqlari orqali aniqlanadi".

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nutqiy janrlar inson faoliyati bilan bog'liq ravishda vujudga keladi. Ta'kidlash kerakki, inson faoliyatining turli jabhalarini o'rganuvchi fan sohalarining o'zida ham nutqiy janrlarning ichki subjanrlari kuzatiladi. Masalan, pedagogika sohasidagi ilmiy asarlar, konferensiylar, dissertatsiyalar, seminar, dars kabilalar. Demak, nutqiy janrni turli fan sohalarida tadqiq qilish uning xilmaxilligini o'rganish demakdir. Bu o'rinda nutqiy janr va adabiyot, nutqiy janr va din, nutqiy janr va publisistika, nutqiy janr va media, nutqiy janr va internet, nutqiy janr va biznes, nutqiy janr va falsafa kabilarni aytib o'tish joiz. Mazkur sohalarning ichida ham nutqiy janrning ichki subjanrlari mavjud. Hozirga qadar nutqiy janrlarning 250ga yaqin tiplari aniqlangan bo'lishiga qaramay, nutqiy janrlar tasnifi masalasi dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda71. Nutqiy janrlar tasnifi masalasida tasniflash antinomiyalari va ushbu antinomiyalar asosida yuzaga kelgan murakkab tasniflash usullari (uch va undan ortiq tipdagи tasniflar) kuzatiladi. Tasniflash antinomiyalariga birlamchi

(oddiy) va ikkilamchi (murakkab)72, ritorik va ritorik bo'Imagan73, konvensional va konvensional bo'Imagan74, fatik va informativ janrlar75 kabilarni kiritish mumkin. Nutqiy janrlar ichida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, eng qadimgi janrlardan biri qasamlardir. Qasam nutqiy janrining o'zgarmas, turg'un shaklda ekanligi ularni frazeologizmlarga o'xshatadi. Lekin qasam nutqiy janrga taalluqli bo'lganligi uchun nutqiy birlikdir, frazeologik birliklar esa til birligiga kiradi.

Qasamlar tasnifiga kelganda, o'z-o'zidan, umumiy va xususiy qasam turlariga ajratiladi. Falsafada bo'lganidek, umumiylit va xususiylik orasida alohidalik ham mavjuddir. Masalan, umumiy qasamlar (Prezident qasami, harbiylar qasami va sh.k.); barcha lingvomadaniyatlarda xususiy qasamlar (masalan, xalqona qasamlar) esa bir til yoki bir til oilasiga mansub bo'lgan lingvomadaniyatlarda mavjud bo'ladi. Alohidalik esa ma'lum sotsial guruh qasamlari uchun tegishli bo'ladi (masalan, soha qasamlari). Umumiy qasamlar sirasida Prezident qasamlari (inauguratsiya)ning personal qasamyod turiga kirishi, qasam rekvizitlari mavjudligi (masalan, Qur'on yoki Konstitusiya, bayroq, gerb va sh.k.), tantanavor qasamyod qilinishi (ritual) bilan umumiylitni tashkil qiladi. Masalan, quyidagi qasamyodlarni ko'rib chiqaylik: Turkiya Prezidenti qasamyodi: "Davlatning mavjudligi va mustaqilligini, mamlakat va millatning ajralmas yaxlitligini, millatning mutlaq suverenitetini himoya qilishga, qonun ustuvorligiga, demokratik va dunyoviy respublikaga, Otaturk tamoyillari va islohotlariga sodiq qolishga; jamiyatda tinchlik va farovonlik, milliy hamjihatlik vaadolat, Konstitusiya sodiqlik tushunchalari asosida har kim inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanishga haqli ekanligi haqidagi idealdan chetga chiqmaslikka buyuk Turk millati oldida sha'nim va butunligimga qasamyod qilaman".

Qasamyod barcha tillar uchun ham universal tipologik hodisadir. O'z vazifasiga ko'ra qasamyod nutqiy janr darajasiga ko'tarilishi uchun, avvalo, o'sha gap so'zlovchi tomonidan qasamyod nutqiy janrinining maxsus qolipi, ya'ni kompozitsion tuzilmasi orqali ifodalanishi talab qilinadi. So'zlovchining ahd, va'da, ishontirish nutqiy harakatlarini ifodalovchi gapga qasamyod qolipining kiritilishi bilan haqiqiy ma'nodagi qasamyod nutqiy janri shakllanadi. Ko'rindiki, qasamyod nutqiy janri ahd, va'da, ishontirish kabi nutqiy birliklar orqali shakllanadi. Soha qasamlari tashqi qasamlar turiga kiradi. Ularning ba'zilarini tahlil qilib ko'ramiz.

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodi

O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitusiyasi va qonunlari qat'iy rivoja etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdoran bajarishga tantanali qasamyod etaman.

Bu qasamyodning tematik mazmuni belgilangan qonunlarga rivoja qilgan holda xalqqa xizmat qilishdan iborat, tantanavor, pafosli uslubga va ohangga ega.

#### XULOSA

Xullas, nutqiy janrlardan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, eng qadimgi janrlardan biri qasamlardir. Qasamlar nutqiy janrinining o'zgarmas-turg'un shaklda ekani ularni frazeologizmlarga o'xshatadi. Lekin qasam nutqiy janrga taalluqli bo'lganligi uchun nutqiy bilikdir, frazeologik birliklar esa til birligiga kiradi. Qasamlar umumiy va xususiy qasam turlariga ajratiladi. Falsafada bo'lganidek, umumiylit va xususiylik orasida alohidalik ham mavjuddir. Umumiy qasamlar barcha lingvomadaniyatlarda, xususiy qasamlar 99 bir til yoki bir til oilasi bo'lgan lingvomadaniyatlarda mavjud bo'ladi. Alohidalik esa ma'lum sotsial guruh qasamlari uchun tegishli bo'ladi.

Sohaviy qasam matnlarini o'rganish davomida ularda quyidagi 1) qat'iyatli boshlanish; 2) dramatizm; 3) emotsiyonallik; 4) qisqalik; 5) tantanali xotima xususiyatlari aniqlandi. Demak, sohaviy qasam matnlari aniq va qat'iyatli boshlanadi, matnga dramatizm singdiriladi, emotsiyonallik bilan sug'oriladi, asosiy maqsad qisqa va tiniq ifodalanadi. Xotima tantanavor bo'lib yakunlanadi. Sohaviy qasamlarni tasnif qilishda bir qancha belgilar e'tiborga olinishi zarur. Shu nuqtai nazardan sohaviy qasamlar quyidagi 4 turga bo'lindi: 1) tematik (personal, xarbiy va h.z); 2) temporal (permament, imperament); 3) lokallik (umumlokal, turli lokal); 4) kvantitativ (singulyar, plural). Demak, soha qasamlari ushbu belgilariga ko'ra o'z ichida yana turlarga ajratiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эшбаева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б.26 (Eshbaeva F. Genre features and artistry of Uzbek folk Ravens. Candidate of philological Sciences – Tashkent, 2008. - Page 28);

## TILSHUNOSLIK

2. Суванкулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 128 (Suvankulov B. Genre features and art of Uzbek folk anecdotes. Candidate of philological Sciences – Tashkent, 2008. - Page 128);
3. Айходжаева Ш. Мақом тароналари (жанр хусусиятлари, ижро анъаналари). Санъат. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 150 (Aykhodjaeva Sh. Status tarones (genre features, performance traditions). Candidate of science of art. – Tashkent, 2007. - Page 150);
4. Кўчкоров Н. Ўзбек халқ олқишиларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 128 (Kuchkorov N. Genre features and art of Uzbek folk applause. Candidate of philological Sciences – Samarkand, 1994. – Page 128);
5. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 314 (Yuldashev M. Linguopoietic study of the literary text. Candidate of philological Sciences. – Tashkent, 2009. – Page 314);
6. Чиникулов Н. Пешлавҳаларнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 133 бет (Chinikulov N. Linguistic features of peshlavhas. Candidate of philological Sciences. – Tashkent, 2007. – Page 133);
7. Сулаймонов М. Ўзбек тилидаги дастхатларнинг социолингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 126 (Sulaymonov M. Sociolinguistic study of Uzbek language autographs. Candidate of philological Sciences. – Tashkent, 2009. – Page 126);
8. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши. Филол. фан. номз. ... дисс. – Бухоро, 2002. – Б. 136 (Juraeva B. Linguistic position and spiritual and methodological application of Proverbs. Candidate of philological Sciences. – Bukhara, 2002. – Page 136);
9. Хасанова Ф.Х. Инглиз ва ўзбек типларида қасамёд нутқий жанрининг қиёй-типологик тадқиқи. Фил.фан.фал.доктори (PhD) диссертацияси. -Тошкент, 2019.-Б.32 (Khasanova F. Comparative typological study of the genre of sworn speech in English and Uzbek. Candidate of philological Sciences. Tashkent, 2019 – Page 32);
10. Дементьев В.В.Жанры речи и дискурс: Местожанроведческих исследований в парадигме дискурса анализа. Вестник РУДН. №3. Серия: Лингвистика.– Москва, 2016 (Dementev V. speeches and discourse: The place of genre studies in the paradigm of discourse analysis. Bulletin of the RUDN. No. 3. Series: Linguistics. – Moscow, 2016);
11. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва, 1986. – С. 188 (Bakhtin M. The problem of speech genres. Literary and critical articles. – Moscow, 1986. – Page 188);
12. Алпатов В.М. Вопросы лингвистики в работах М.М. Бахтина 40-60-х гг. // Вопросы языкоznания, № 6, 2001 (Alpatov V. Questions of linguistics in the works of M.M. Bakhtin of the 40-60s. // Questions of Linguistics, № 6, 2001);
13. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва, 1986. – С. 428-472 (Bakhtin M. The problem of speech genres. Literary and critical articles. – Moscow, 1986. – Page 428-472);
14. БахтинМ.М. Проблема речевых жанров//Бахтин М.М. Собр. соч. -М., 1996. - С.179 (Bakhtin M. (Bakhtin M. The problem of speech genres// Bakhtin M. Moscow, 1996. – Page 179).